

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIJY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHELTULLAR INSTITUTI



T.M. Tuxtasinov

2023 yil 30 08

Ro'yxatga olindi: № MID-70230101.1-08

2023 yil 30 08

LINGVOPRAGMATIKA

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi: 230 000 - Tillar

Mutaxassislik: 70230101 - Lingvistika (italyan tili)

Fan/modul kodi LPRG1304	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS – Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Lingvopragmatika	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni <i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> - magistratura talabalariga "Lingvopragmatika"ning nazariy asoslari, tayanch tushunchalari, o'rganish ob'yekti, dolzarb muammolari haqida ma'lumot berish; til birliklariga xos lingvopragmatik qonuniyatlarni o'rgatish, ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p><i>Fanning asosiy vazifasi</i>- magistratura talabalarini pragmatik lingvistikaga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirish, amaliy ko'nikmalarni hosil qilish; pragmatik hodisalar tahliliga antropotsentrik yondashuvni shakllantirishdir.</p> <p>Ushbu fan magistrantlarni til birliklarining shaxs omili bilan bog'liq holda voqelanishida kuzatiladigan lingvopragmatik hodisalar bo'yicha vazifalarini mohirona hal etishga yo'naltiradi. Bunda asosiy e'tibor magistrnlarning amaliy ko'nikmalarini ishlab chiqish, nutqiy akt nazariyasi, diskurs hodisasi, deysis nazariyasi, nutqning implikatura birliklari, muloqot xulqi, konnotatsiya va baho munosabati kabi nazariy masalalar yuzasidan italyan tilidagi matnlarni pragmalinglevistik tahlil etish usullari bo'yicha bilimga ega bo'lish, til birliklarini pragmalinglevistik aspektida tahlil qilish usullarini egallash, nutqiy vaziyatni to'g'ri baholash, pragmatik omillarni asoslash, adabiy til me'yorlari va unga xos bo'lmagan holatlarni baholay olishga qaratiladi.</p> <p>II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: I-mavzu. Tilshunoslikda pragmatika sohasining o'rganilishi. <i>Pragmatika</i> (yun. pragma, pragmatoes — ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch. Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan tashlangan; yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va "Pragmatika" terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida</p>		

<p>amaliyotga kiritgan. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvopragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi sub'yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq holda ham ko'plab masalalar o'rganiladi.</p> <p>2-mavzu. Tilshunoslikda kommunikativ-pragmatik yo'nalishning shakllanishi. Pragmatik lingvistika antropotsentrik tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida.</p> <p>Pragmatik lingvistikaning o'rganish ob'yekti, maqsad va vazifalari; tadqiq usullari va dolzarb muammolari. Dunyo tilshunosligida pragmalinglevistik aspektida amalga oshirilgan tadqiqot ishlarining umumiy tahlili. Pragmatik lingvistikada shaxs va nutqiy vaziyat omili, ularning o'zaro aloqasi; til egalarining nutq ob'yekti haqida umumiy bilimlari va til ko'nikmalari.</p> <p>3-mavzu. Semantika va pragmatika munosabati.</p> <p>Semantika va pragmatikaning o'zaro munosabati. Ularning matn mazmunini shakllantirishdagi o'rni. Nutqiy tuzilmada semantika va pragmatika munosabatini hosil qiluvchi omillar. Til birliklarining semantika va pragmatikadagi vazifaviy taqsimoti. Pragmatika «xizmatida» bo'lgan grammatik kategoriyalar. Shifterlar. Nutqiy akt propozitsiyasi va pragmatik mazmuni.</p> <p>4-mavzu. Nutqiy akt nazariyasi haqidagi qarashlar.</p> <p>Nutqiy akt nazariyasining pragmalinglevistik ta'limotda tutgan o'rni. Nutqiy akt tushunchasi. Nutqiy aktga berilgan ta'rif va talqinlar. Nutqiy akt nutqiy harakatni anglatuvchi kommunikativ aloqaning verbal ifodali birligi sifatida. Nutqiy aktning so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi nutqiy aloqani aks ettirishi. Nutqiy aktning tavsifiy belgilari: erkinlik, maqsadlilik, mantiqiy shakllanganlik, harakatchanlik. Nutqiy akt mazmunining lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishi. J.Ostin, J.Serling nutqiy akt haqidagi konsepsiyasi.</p> <p>5-mavzu. Pragmatik mazmuni shakllantiruvchi hodisalar.</p> <p>Matn mazmunining denotativ va signifikativ xususiyatlari. Propozitsiya, referentsiya, eksplikatura, inferentsiya, implikatura, relevantlik, presuppozitsiya tushunchalari. Propozitsiyaning bilimni yetkazish shakli sifatida axborotni to'plash va saqlashning kognitiv strukturali kechishi hamda muloqot matnining nutqiy muloqotning muvaffaqiyatli kechishi hamda muloqot matnining mazmunli shakllanishini ta'minlovchi hodisa sifatida. Inferentsiyaning matnda turli mantiqiy-semantik amallar asosida mazmuniy xulosalarga erishish yo'li ekanligi.</p> <p>6-mavzu. Matnning implikatura birliklari. Pragmatik presuppozitsiya va tag ma'no.</p>	<p>3</p>
---	----------

Presuppozitsiyaning «soʻzlovchilarning umumiy bilish fondi, ularning oldindan kelishuvi», «oldindan maʼlum bilimlar jami», «soʻz bilan ifodalanmagan mazmun komponenti, matnni bir xil idrok etishga imkon beruvchi dastlabki bilim» ekanligi. G. Frege, P. Strosen, N. D. Arutyunova, Ye. V. Paducheva, F. Kifer, V. Demyankovlarning presuppozitsiya haqidagi qarashlari. Presuppozitsiya turlari: pragmatik va semantik presuppozitsiya. Ekzistensial, faktiv, nofaktiv, leksik, strukturaviy, kontrfaktiv presuppozitsiya haqidagi nazariyalar. Presuppozitsiya signallari: presuppozitsiyaning ifodalovchi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik birliklar. Tag maʼno va presuppozitsiya munosabati. Nutqda tag maʼnoning ifodalanishi.

7-mavzu. Nutqiy aktning samarali kechishi.

Nutqiy muloqot xulqi. Nutqiy aktning samarali kechishida muloqot xulqining ahamiyati. Muloqot xulqi meʼyorlari, muloqot odobi. Samarali muloqot tamoyillari: miqdor, sifat, muqobillik va muomala tarzi tamoyillari. Miqdor tamoyilida maʼlum qilinayotgan axborot miqdorining belgilanishi yoki chegaralanishi. Samarali muloqotning sifat tamoyilida ifodadagi axborotning haqqoniy boʻlishiga erishilishi. Muqobillikning mavzuga oidlik tamoyilini aks ettirishi. Muloqot tarzi tamoyillari: aniq va tushunarli soʻzlashga harakat qilish, notanish, tushunilishi qiyin boʻlgan iboralarni qoʻllashdan qochish, nutqning mantiqiy uzviylikda boʻlishiga erishish.

8-mavzu. Samarali muloqotda hamkorlik va hurmat tamoyillari.

Kommunikativ faoliyatda oʻzaro hamkorlik tamoyili. Oʻzaro hamkorlik, bir-birini tushunishga intilish muloqot samarasining asosiy talabi ekanligi. Pragmatik lingvistik talqinda hurmat tamoyili. Hurmat tamoyilining nutqning samarali kechishini taʼminlovchi vosita ekanligi. J.Lich, P.Braun, S.Levinsonlarning hurmat tamoyili haqidagi qarashlari. Sotsiopragmatikada hurmat kategoriyasi talqini. Hurmat turlari: salbiy va ijobiy hurmat strategiyasi. Hurmat tamoyilini faollashtiruvchi vositalar, ularni qoʻllash mexanizmlari.

9-mavzu. Deyksis nazariyasi. Deyksisning pragmatik mohiyati va oʻrganilishi.

Deyksisning pragmatik mohiyati, uning muloqot matni va nutq vaziyati bilan aloqasi. Tilshunoslikda deyksis hodisasining oʻrganilishi. Deyksis nazariyasining ishlab chiqilishida K.Byulerning xizmatlari. Nutqiy muloqotning shakllanish va rivojlanish bosqichlarida deyktik birliklardan foydalanish. Deyksisning bolalar va kattalar nutqida ifodalanishidagi farqli jihatlari.

10-mavzu. Deyksisni ifodalovchi til birliklari. Deyksis turlari.

Tilda deyksisni hosil qiluvchi fonetik, leksik, grammatik vositalar. Nutqiy harakat koordinatalari. Deyktik markazni tarkib topdiruvchi qismlar. Deyktik

maydon tushunchasi. Shiftedar. Deyksisning turlari: shaxs deyksisi, predmet deyksisi, belgi deyksisi, miqdor deyksisi, zamon deyksisi, makon deyksisi, sotsial deyksis, diskurs deyksisi, emotsional holat deyksisi, meʼyoriy holat va baho deyksisi. Anafora va diskurs deyksisi. Shaxs deyksisini ifodalovchi birliklar. Anafora. Deyktik makonning ifodalanishi. Zamon deyksisining ifodalanishi. Diskurs deyksisi. Emotsional, sotsial deyksisni ifodalovchi birliklar. Baholash harakati. Emotsiya deyksisining koʻrsatkichlari. Metaforik va metonimik deyksis turlari.

11-mavzu. Pragmatik konnotatsiya va baho munosabati.

Konnotatsiyaning pragmatik mohiyati va oʻrganilishi. Konnotatsiyaning oʻrganish obyekti, mohiyati. Konnotatsiyaning anʼanaviy talqini: uning soʻzlovchining kommunikativ maqsadi bilan bogʻliq holda nutqiy taʼsirchanlikni oshirish, ekspressiv-emotsionallik, boʻyoqdorlikni taʼminlashga xizmat qilishi. Konnotativ maʼno tushunchasi. Denotativ va konnotativ sema munosabati, ular oʻrtasidagi sababiy aloqadorlik. Konnotativ maʼnoning nutqda reallashuvi. Konnotativ maʼnoni hosil qiluvchi vositalarning kontekst bilan bogʻliqligi. Tilshunoslikda konnotatsiyaning oʻrganilish tarixi. J.S.Mill talqinda konnotatsiya. Konnotatsiyaning turli fan sohalarida oʻrganilishi.

12-mavzu. Konnotatsiyaning hosil qiluvchi lingvistik va ekstralingvistik vositalar. Konnotatsiya turlari.

Italyan tilida konnotativ maʼnoning ifodalanishi usullari, konnotatsiyaning hosil qiluvchi verbal va nonverbal birliklar, ularning matnda ekspressiv-emotsionallikni hosil qilishdagi oʻrni. Konnotatsiyaning ifodalovchi birliklarning qoʻllanish darajasi, kattalar va bolalarda nutqda farqlanishi. Konnotatsiyaning turlari: kontekstual, tematik, tarixiy-madaniy, tarixiy-lisoniy, ekspressiv baho ifodalovchi konnotatsiyalar. Konnotatsiyaning ingerent (ichki) va adgerent (tashqi, nutqiy) koʻrinishlari.

13-mavzu. Matn va diskurs nazariyasi. Diskurs nazariyasi.

Diskursning pragmatik lingvistik talqini. Diskursning bir paytning oʻzida ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham uning mahsuli ekanligi. Diskursning tuzilishi va tarkib topishi. Diskursda lison, shaxs va vaziyat omilining muvofiqlashuvi. Diskursiv faoliyat. Diskursning turlari. Matn va diskurs hodisalarining munosabati. Diskurs va matnning muloqot ishtirokchilarning ongli faoliyati natijasi ekanligi.

14-mavzu. Diskurs haqidagi nazariy qarashlar tahlili.

Tilshunoslikda diskursning oʻrganilishi. Diskurs talqiniga turlicha yondashuvlar: diskursning nolisoniy omillar (pragmatik, ijtimoiy-madaniy, ruhiy) bilan birgalikdagi matn; voqea kechishi nuqtai nazaridan qaralayotgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq tarzida baholanishi; diskurs - inson ongli faoliyatining maʼlum bir turi, matn uning bir koʻrinishi ekanligi haqidagi qarashlar.

15-mavzu. Matn tadqiqiga pragmatik yondashuv.

Matnning pragmatik xususiyati. Matnning lisoniy-pragmatik sistema ekanligi. Matnning xususiyatlari: komeziva, kogerentlik, intensiya

(kommunikativ maqsad) ifodasi, idrok qilish imkoniyati, infomativlik, vaziyat bilan bog'liqlik, intertekstuallik kabilar. Matnning semantik-sintaktik strukturalari. Matn yaxlitligini aniqlashda uning struktur-semantik ko'rsatkichlariga tayanilishi. Tugallanganlik matn yaxlitligining muhim belgisi sifatida. Matn qismlarining bog'liqligi va diskretligi. Matn qismlarini bog'lovchi vositalari. Matnda kommunikativ mazmun. Informativ mazmun. Yaxlitlik va tugallanganlik.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Dunyo tilshunosligida pragmatik lingvistik aspektda amalga oshirilgan tadqiqot ishlarining umumiy tahlili.
2. Nutqiy akt haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
3. Nutqiy akt turlari: lokutiv, illokutiv, perlokutiv akt turlarini aniqlash.
4. Axborotni oshkora va yashirin bayon etuvchi propositsional aktlar tahlili.
5. Nutqiy aktning shakllanishida ishtirok etuvchi propositsional aktlar tahlili.
6. Nutqiy pragmatik to'siqni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash.
7. Matn mazmunining denotativ va signifikativ xususiyatlari.
8. Pragmatik presuppozitsiya va tag ma'no haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
9. Presuppozitsiyani ifodalovchi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik birliklar tahlili.
10. Samarali muloqotda hamkorlik va hurmat tamoyillari.
11. Tilshunoslikda deysis hodisasining o'rganilishi. Deyksisning turlari haqidagi nazariy qarashlar tahlili. Italyan tilida deysisni ifodalovchi til birliklari.
12. Konnotatsiya va baho munosabati muammosining o'rganilish tarixi. Italyan tilida konnotativ ma'noning ifodalanishi usullari, konnotatsiyani hosil qiluvchi verbal va noverbal birliklar.
13. Diskursning pragmatik yondashuv. Matn qismlarini bog'lovchi vositalar.
14. Matn tadqiqiga pragmatik yondashuv. Matn qismlarini bog'lovchi vositalar.
15. Nutqiy etiket. Italyan nutq odobi.

Har bir amaliy mashg'ulot multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Magistrlarga mavjud adabiyotlardan va boshqa manbalardan foydalanib o'zlarining lingvistik bilimlarini chuqurlashtirishlari lozim.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Pragmatik lingvistikning o'rganish ob'yekti, maqsad va vazifalari; tadqiq usullari va dolzarb muammolari.
2. Dunyo tilshunosligida pragmatik lingvistik aspektda amalga oshirilgan tadqiqot

ishlarining umumiy tahlili.

3. Pragmatik lingvistikda shaxs va nutqiy vaziyat omili, ularning o'zaro aloqasi; til egalarining nutq ob'yekti haqida umumiy bilimlari va til ko'nikmalari.
4. Pragmatika «xizmatida» bo'lgan grammatik kategoriyalar. Shifterlar. Nutqiy akt propositsiyasi va pragmatik mazmuni.
5. J.Ostin, J.Serlning nutqiy akt haqidagi konseptsiyasi.
6. Matn mazmunining denotativ va signifikativ xususiyatlari.
7. Propozitsiya, referentsiya, eksplikatura, inferentsiya, implikatura, relevantlik, presuppozitsiya tushunchalari.
8. G. Frege, P. Strosen, N. D. Arutyunova, Ye. V. Paducheva, F. Kifer, V. Demyankovlarning presuppozitsiya haqidagi qarashlari.
9. Presuppozitsiya turlari: pragmatik va semantik presuppozitsiya.
10. Ekzistensial, faktiv, nofaktiv, leksik, strukturativ, kontrfaktiv presuppozitsiya haqidagi nazariyalar.
11. J.Lich, P.Braun, S.Levinsonlarning hurmat tamoyili haqidagi qarashlari. Sotsiopragsmatikada hurmat kategoriyasi talqini.
12. Tilshunoslikda deysis hodisasining o'rganilishi.
13. Deyksis nazariyasining ishlab chiqilishida K.Byulerning xizmatlari.
14. Tilshunoslikda konnotatsiyaning o'rganilish tarixi. J.S.Mill talqimida konnotatsiya.
15. Matnning pragmatik xususiyati.
16. Matnning lisoniy-pragmatik sistema ekanligi.
17. Matnning xususiyatlari: kogeziya, kogerentlik, intensiya (kommunikativ maqsad) ifodasi, idrok qilish imkoniyati, infomativlik, vaziyat bilan bog'liqlik, intertekstuallik kabilar.
18. Italyan tilida deysisni ifodalovchi til birliklari.
19. Konnotatsiya va baho munosabati muammosining o'rganilish tarixi.
20. Italyan tilida konnotativ ma'noning ifodalanishi usullari, konnotatsiyani hosil qiluvchi verbal va noverbal birliklar.
21. Diskursning pragmatik yondashuv.
22. Matn tadqiqiga pragmatik yondashuv.
23. Matn qismlarini bog'lovchi vositalar.
24. Nutqiy etiket. Italyan nutq odobi.
25. Lingvopragmatika va uning tadqiq manbayi
26. Muallifning pragmatik munosabati.
27. Matnning o'rganishda funksional va pragmatik jihatlar
28. "Pragmatika" atamasi va uning talqinlari haqida
29. "Pragmatik munosabat" tushunchasi haqida
30. Pragmatik munosabatni amalga oshirishning til vositalari

4.	<p>Magistrantlarning mustaqil ishi dasturning asosiy bo'limlari asosida rejalashtiriladi va quyidagi ish turlarini nazarda tutadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • amaliy til materialini yig'ish, kartochkalar tuzish, kognitiv lingvistikaning • nazariy va amaliy muammolari bo'yicha testlar tuzish; • ma'lum bir til sathiga tegishli til birliklarini egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib tahlil qilish va prezentatsiya qilish; • darslik va o'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari va mavzularini o'rganish va ustida ishlash; • ma'ruza kursining ma'lum bir qismlari bo'yicha prezentatsiyalar va ma'ruza fragmentlarini tayyorlash; • tanlangan mavzu bo'yicha referatlar yozish va loyihalar tayyorlash; • o'rganilayotgan chet tili lisoniy materiali yoki adabiyoti materiali asosida kontseptual tahlil metodlarini qo'llagan holda til va tafakkur munosabatlarini, milliy dunyoqarashning xususiyatlarini, lisoniy-kognitiv foliatning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil etish; • fraseologiyaning asosiy muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan ilmiy loyihalar, portfoliolar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. <p>V. Ta'lim natijalari/kasbiy kompetentsiyalari:</p> <p>Magistrant bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tilni madaniyat bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish, nutq modullari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv), tili o'rganilayotgan xalqning axloqiy me'yorlarini; ilmiy va sohaga oid konferentsiya, davra suhbatlari, munozara (jonli yoki vositali) larda mulqotni boshlash, olib borish va yakunlay bilish to'g'risida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi; (bilim)</i> • respublika, ta'lim muassasalariaro ilmiy anjuman va seminarlarda so'zga chiqish maqsadida notiqlik san'ati; ilmiy tadqiqot ishini yozish; ilmiy axborotni izlab topib, interpretatsiya qila bilish; saralangan axborotni matnlarda umumlashtirish, kengaytirish va toraytirish; tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish; lisoniy vositalarni tahlil qilish, qiyoslash, sintez va baholash maqsadida refleksiv ko'nikmalarni; chet tilini amaliyotda, ilmiy tadqiqot va loyihalashtirish faoliyatda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan kasbiy va ilmiy ko'nikmalariga ega bo'lishi; (ko'nikma) • turli jandagi ilmiy matnlarning strukturasini, mazmunini tahlil qilish; ilmiy soha va madaniyatlararo mulqotning barcha jabhalarida til sohiblariga adekvat ravishda turli janr va uslubdagi matnlarni tushunish, tahlil etish va tuzish; og'zaki va yozma matnlarni tushunish va tuzish strategiyalarini, hamda kasbiy faoliyatda mulqotning perseptiv, interaktiv va information taktikalarini egallash; bibliografik havolalarni, iqtiboslarni to'g'ri rasmiylashtira olish malakalariga ega bo'lishi kerak; (malaka) <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p>
3.	<p>Magistrant bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tilni madaniyat bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish, nutq modullari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv), tili o'rganilayotgan xalqning axloqiy me'yorlarini; ilmiy va sohaga oid konferentsiya, davra suhbatlari, munozara (jonli yoki vositali) larda mulqotni boshlash, olib borish va yakunlay bilish to'g'risida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi; (bilim)</i> • respublika, ta'lim muassasalariaro ilmiy anjuman va seminarlarda so'zga chiqish maqsadida notiqlik san'ati; ilmiy tadqiqot ishini yozish; ilmiy axborotni izlab topib, interpretatsiya qila bilish; saralangan axborotni matnlarda umumlashtirish, kengaytirish va toraytirish; tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish; lisoniy vositalarni tahlil qilish, qiyoslash, sintez va baholash maqsadida refleksiv ko'nikmalarni; chet tilini amaliyotda, ilmiy tadqiqot va loyihalashtirish faoliyatda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan kasbiy va ilmiy ko'nikmalariga ega bo'lishi; (ko'nikma) • turli jandagi ilmiy matnlarning strukturasini, mazmunini tahlil qilish; ilmiy soha va madaniyatlararo mulqotning barcha jabhalarida til sohiblariga adekvat ravishda turli janr va uslubdagi matnlarni tushunish, tahlil etish va tuzish; og'zaki va yozma matnlarni tushunish va tuzish strategiyalarini, hamda kasbiy faoliyatda mulqotning perseptiv, interaktiv va information taktikalarini egallash; bibliografik havolalarni, iqtiboslarni to'g'ri rasmiylashtira olish malakalariga ega bo'lishi kerak; (malaka) <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p>

5.	<ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-studyilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya uchun loyihalar. <p>VII. Kreditlarni olish uchun magistrantlar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazoratda berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bazzanella C. Linguistica e pragmatica del linguaggio. Edizione Laterza, 2008 2. Cherubini Nicoletta L'italiano per gli affari. Bonacci editore, Roma, 1992 3. Coveri L., Benucci A., Diadori P. Le varietà dell'italiano. Bonacci editore, Roma, 1998 4. Dardano M., Trifone P., La lingua italiana, Zanichelli, Bologna, 1985 5. Pittano G. Così si dice (e si scrive). Zanichelli, Bologna, 1993 6. Venier Federica Tra pragmatica e linguistica testuale ricordando Maria-Elisabeth Conte. Edizioni dell'Orso Alessandria, 2009. 7. Сапаров III. Прагматическая лингвистика. - Тошкент, 2008. - 300 б. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Graffi G. e Scalise S., Le lingue e il linguaggio. Introduzione alla linguistica, Bologna, Il Mulino. 2. Levinson S.C., La Pragmatica, Bologna, Il Mulino 3. Kovalev V., Vocabolario russo-italiano-russo, Zanichelli, Bologna, 2000 4. Materiali dell'insegnante <p>Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. https://it.wikipedia.org/wiki/Pragmatica 2. file:///C:/Users/User/Downloads/Calaresu2009-M-EConteepragmaticalinguistica.pdf 3. www.esteri.it (Ministero Affari Esteri italiano) 4. www.straniti.it (sito per insegnanti di L2/LS)
7.	<p>Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2023-yil "30" <u>08</u> <u>1</u> dagi "1" -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p>

	B. M. Sadikova - SamDChTI, "Ispan va italyan tillari" kafedrası katta o'qituvchisi. M.R. Xakimov - SamDChTI, "Ispan va italyan tillari" kafedrası katta o'qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: A.F. Shamaxmudova - SamDChTI, "Ispan va italyan tillari" kafedrası mudiri, professor v.b. D. F. Toirova - TATU, Samarqand filiali "Tillar" kafedrası DS